

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

ekvonimiya boshlanadi. Giponimiyaning tugashi va ekvonimiya boshlanishida ularning sinkretlashuvi sodir bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдуалиева З. Гипонимо-эконимические отношения в системе зоонимов. Saarbrücken: Lambert Academic Publishing, 2015.-С.24.
2. Абдурахмонов Ф. Қўшма гап синтаксиси асослари. Т.: Фан, 1958. – 327 б.
3. Асқарова М. Ҳозирги ўзбек тилида эргашиш формалари ва эргаш гаплар. -Т.: Фан, 1966.
4. Баскаков Н.А. Предложений в современном турецком языке. М: Наука, 1984. - 119 с.
5. Бердиалиев А. Семантико-сигнификативная парадигматика и синтагматические отношения в конструкциях сложноподчиненного предложения узбекского языка: Дисс. ... докт. филол. наук. Т.: 1989.-281 с.

ZAMONAVIY TA'LIM PEDOGOGIKASIDA ILMIY TADQIQOT METODLARINING O'RNI.

Yuldasheva Xadichaxon

Toshkent Gumanitar Fanlar Universiteti

Psixologiya yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Bugunda zamonaviy ta'limda eng yangi uslublarda, innovatsion texnika va texnologiyalardan foydalangan holda, ilmiy tadqiqot metodlarini qo'llash orqali dars jarayonlarini qiziqarli, tushunarli tartibda olib borish yo'lga qo'yilmoqda. Pedogok qanchalik mohirlik ila metodlarni qo'llashi, talaba va yoshlarni bilim olishga jalb qila olshi, kelajakda yurtimizdan ilmiy, bilimli kadrlarni chiqishi, o'z kasbining fidokorlari ko'payishi, hamda yurtimizda innovatsion, kreativ o'zgarishlar ro'y berishidan darakdi.

Kalit so'zlar: innovatsiya, kreativ, pegogok, metod, ilmiy, tadqiqot, ta'lim.

Zamonaviy pedagogika nazariyasida nimani o'rganish va o'rgatish, kimniva qanday tarbiyalash lozim degan masalalar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmasdan o'zaro uzviy bog'liqlikda yechimini kutmoqda. Pedagogika fani o'z mazmun mohiyatini boyitishda yangilashda mavjud pedagogik hodisa va nazariyalarni uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan metodlari bilan o'rganadi.

Sh. Abdullayeva.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Yosh avlodni tarbiyalash, bilimli qilish va o'qitishning aniq jarayonlariga xos bo'lgan ichki aloqa va munosabatlarini bilish yo'llari, usullari va vositalarini o'rganadi.

Fanning ilmiy-tadqiqot metodlari qanchalik to'g'ri tanlansa ta'lim-tarbiya mazmunini yangilash va takomillashtirish shu darajada yaxshilanadi, pedagogika fani ham boyib boradi.

Fanning salohiyati va nufuzi-mazkur metodlar yordamida to'plangan ma'lumotlarning obyektivligi va ishonchliligiga bog'liq bo'ladi.

Metod- (lotincha metodos-yo'l,uslub)tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot deb tarjima qilinadi. Ilmiy tushuncha sifatida metod so'zi keng ma'noda:muayyan muammo yechimini topishga yo'naltirilgan uslubni, ma'lum mqasadga erishish yo'lini, tor ma'noda tabiat va ijtimoiy hayot hodisalarini hamda qonuniyatlarini bilish maqsadida qadaydir vazifani hal etish uslubini bildiradi.

Pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlari qanchalik to'g'ri qo'llansa ta'lim-tarbiya mazmunini yangilash va takomillashtirish shu darajada yuksaladi.

Zamonaviy sharoitda ,pedagogik yo'nalishda tadqiqotlarni olib borishda quyidagi metodlardan foydalanilmoqda:

Pedagogik kuzatish metodi.

Suhbat metodi.

Anketa metodi.

Intervyu metodi.

Ta'lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi.

Test metodi.

Pedigogik tahlil metodi.

Bolalar ijodini o'rganish metodi.

Pedagogik tajriba metodi.

Matematikaviy statistika metodi.

Adabiyotlarni o'rganish,hujjatlarni tahlil qilish metodi-tadqiqot doirasida ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari,nutqlari , risolalari, pedagogika,psixologiya, valeologiya, falsafa, sotsiologiya, madaniyat, iqtisod, siyosat va boshqa adabiyotlar, ilmiy izlanishlar qo'lyozmalar, dissertatsiyalar, normativ hujjatlarni tahlil qilishda qo'llaniladi. Bunda tadqiqot mavzusi bo'yicha o'rganilayitgan jarayonlarning umumiy miqdori uning o'sishi yoki kamayish sabablari, tavsifi tatbiq qilinayotgan tushunchalarni shakllanganlik darajasiga e'tibor beriladi.

Pedagogik kuzatish metodi- ushbu metod ta'lim-tarbiya jarayonlarining amaldagi holatlari bilan tanishtiradi, ularni oqibat natijalarini bilishga yordam beradi va shu asnoda yaratigan yangi kashfiyotlar uchun dalillar omillar yig'ish imkonini tug'diradi. Ushbu metod murakkab bo'lib nazarda tutilgan maqsad qanaday amalga ashayotganligini aniqlash subyekt-subyekt munosabatlarining o'zaro aloqalari individual farqlarini qiyoslash uchun qo'llaniladi. Pedagogik kuzatish metodini qo'llash jarayonida -ta'lim muassasalarining o'quv tajriba jarayonini

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

o'rganish asosida tatbiq etilayotgan muammo holati aniqlanadi, tajriba avvali va yakunida qo'lga kiritilgan ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'linadi.

Pedagogik kuzatish-murakkab va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatish- aniq maqsad asosida ,uzluksiz izchil va tizimli amalga oshirilsa, kutilgan natijani qo'lga kiritish mumkin.

Suxbat- turli ko'rinishlarda ,kirish, yakuniy, individual va guruhli suhbat tarzida tashkil etiladi.

Kirish suhbat- o'quv ishlarining boshida tashkil etiladi. Maqsad- hal etilishi zarur bo'lgan ishlar mohiyatining talabalar tomonidan anglab etilganligini tekshirib ko'rishdan iborat. Yakuniy suhbat- talabalar tomonidan egallangan bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish maqsadida amalga oshiriladi.

Katexizism (qisqa bayonli) suhbat- talabalarning boshlang'ich bilim darajasi va ularning yangi mavzuni o'zlashtirishga tayyorgarligini aniqlash uchun dars avvalida yoki so'ngida qo'llaniladi.

Evristik suhbat- yangi bilimlarni muammoli tarzda egallashga yo'naltiriladi. Savollar shunday ketma-ketlikda berilishi zarurki ular talabalarni mustaqil fikrlash faollikning yuzaga kelishini ta'minlash, ularni tahlil qilishga undash, dalillarni ilgari surishga rag'batlantiladi.

Ijtimoy fikrni o'rganish (so'rovnoma, intervyu,test)metodi-taqdiqotchining boshqa kishilardan pedagogik tajribaning biror tomoni yoki hodisalari haqida axborot olishjarayonidir. Metod orqal-o'rganilayotgan muammoning yechimini topish yo'llari belgilanadi. So'rash savollari mantiqiy izchillikda nazokatli shaklda bo'lgani maqsadga muvofiqdir. Qo'yilayotgan savollar aniq ifodalanishi, mavjud nuqson va salbiy oqibatlarning oldini olishga mo'ljallangan bo'lishi lozim.

So'rashning modifikatsiyalashtirilgan shakli-intervyudir.

Intervyudagi savollar oldindan tayyorlanib suhbatdoshiga uzatiladi. Olingan javoblar har doim ham pedagogik muammoni yaxlitligicha tahlil qilishga imkonoyat yaratmaydi. Chunki intervyu javoblari keng jamoatchilik ichida tahlil qilinadi. Shu sababli suhbatdosh ayrim paytlari o'z fikrini aniq, ravshan va baralla aytishga iymnadi.

Test metodi- ijtimoiy fikrni o'rganish, kichik vaqt ichida biron muammoga javob topish tahsil oluvchilarning bilim darajasi va fanlarni o'zlashtirish darajasini o'rganish uchun qo'llaniladi.

Test metodi qisqa vaqt ichida katta hajmdagi ma'lumotga ega bo'lishga, ulkan auditoriya bilan ishlashga imkoniyat yaratadi.

Test sinovlari orqali tahsil oluvchilarning bilimlari qisqa muddat ichida yoppasiga aniqlanadi va baholanadi.

Test-sinovlarining o'rni va ukarning mazmunan rang-barang qilib tuzilishoi ko'p variantda qo'llanilishi tadqiq qilinayotganlarning mustaqil fikrlarini o'stiradi'kelajakni real baholash qobiliyatini taraqqiy ettiradi.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

So'rovnama- anketa metodi qo'llanilganda yaratilgan ilmiy farazning yangiligini bilish, aniqlash, tadqiq qilinuvchilarning yakka yoki guruhli fikrlari, qarashlarini o'rganishga imkon yaratadi, qanday kasblarga qiziqishlarini, kelajak orzu-istaklarini bilish va tegishli xulosalar chiqarish, tavsiyalar berish maqsadida o'tkaziladi.

B / B / B -metodi-

1. Bilaman...
2. 2. bilishni xoxlayman...
3. 3. bilib oldim....

Fikr,mulohaza, isbot FSMU

F - fikringizni bayon eting

S - fikringiz bayoniga sabab ko'rsating

M - fikringizga misol keltiring

U - fikrlaringizni umumlashtiring, xulosalang.

SWOT - tahlili

S -kuchli tomon

W -kuchsiz tomon

O - imkoniyatlari

T - xavf-xatar

Noana'naviy metodlar

”Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma- ketligi”

“Erkin yozish”

“Besh minutlik esse”

“Tushunchalar asosida matn tuzish”

Kabi metolardan ken foydalanilmoqda..

Xulosa: Zamonaviy ta'limda foydalanilayotgan usullar, uslublar, metodlar bularning bari rivojlanayotgan innavatsion jarayonlarda ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida samara beryapti. Talabalar pedogoglar tomonidan hamkorlikda olib borilayotgan o'quv va ta'lim jarayonlari shu darajada yuqori pog'onada o'syapdiki, natijada bilim ko'rsatkichlari balandlab , reytinglar oshyaoti. Bularning misolida til kurslariga bo'lgan talablar va qiziqishlarni olsak, ingliz, rus, xitoy, koreys hamda turk tillariga ixlosmandlar talaygina. Shu bilan birga natijalar ham quvonarli. Buni milliy sertifikat olayotgan yoshlar , xalqaro til sertifikatlarini olayotganlar orqali bilish mumkin.

Ilmiy -Tadqiqit metodlari talaba va yoshlarga o'z ustida ishlash , fikrini erkin hamda mustaqil ifodalash, nutq ravonligi,jamoa bilan ishlay olish singari ko'nikmalarni beradi.

Innovatsion yangilik yaratish, yurtimizni rivojlangan mamlakatlar qatoriga olib chiqish zamonaviy ta'lim pedogogikasining bosh maqsadi sifatida qarash hamda shu bilan birga , samarali bilim berishni ham bosh maqsad qilgan.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Zotan, bugungi kun yoshlari uddaburon, o'z ustida ishlaydigan, rivojlanayotgan yoshlardir.

Prezidentimiz SH. M. Mirziyoyev tashabbuslari bilan fanga, ta'limga nisbatan yaratilayotgan imkoniyatlar, chet eldan olib kirilayotgan o'quv metodlari, zamonaviy texnika va texnologiyalardan oqilona foydalanib, bilim olish va uni amaliyotda qo'llash orqali zamonaviy rivojlanishga o'z hissamizni qo'shish har birimiz uchun sharaflı burj demakdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ismoilova Z.K pedogogikadan amaliy topshiriqlar ; O'quv qo'llanma Toshkent <Fan > 2001
2. Maxmutova G. Pedodogika fanlarni o'qitish jarayonida talabalarni - ma'naviy shakllantirish texnologiyasi // Xalq ta'limi jurnali. Toshkent 2004
3. J. Xasanboyev. X.A.To'raqulov. I.SH.Alqarov N.O' Usmanov. Pedogogika. Darslik < Noshir> Toshkent 2011.

O'ZBEKLARNING DUNYO MIQYOSIDA TUTGAN O'RNI

Ibrohimova Muslimaxon Davronbek qizi

Toshkent shahar Chilonzor tumani 195-IDUM 10-sinf o'quvchisi

Özbeklarning dunyo miqyosida tutgan o'rni juda katta. Salaflarimiz barcha fanlarda eng katta kashfiyotlar tadqiqotlar o'tkazib fanga juda katta hissalarini qo'shganlar. Özbekiston hududi qadimdan ilm-fan va madaniyat markazi bõlgan. Xorazmiy matematika va algebra asoschisi sifatida tanilgan bõlsa, Abu Ali Ibn Sino tibbiyot va falsafa sohalarida buyuk asarlar yaratgan. Ulug'bek astronomiya sohasida olamshumul yutuqlarga erishgan. U Samarqandda rasadxona qurib, yulduzlar jadvalini tuzgan.

Adabiyot va San'at

O'zbek xalqining og'zaki ijodi – dostonlar, maqollar, ertaklar – va yozma adabiyoti dunyo madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatgan. Alisher Navoiy o'zining g'azal va dostonnomalarida insonparvarlik, adolat va ma'rifatni ulug'lagan.

Madaniy meros

O'zbekiston buyuk tarixiy obidalari bilan mashhur. Samarqanddagi Registon, Buxorodagi Ark qal'asi, Xivadagi Ichan Qal'a – bu joylar nafaqat Markaziy Osiyo, balki dunyo merosi sifatida e'tirof etilgan.

Ilm-fan va falsafa